

**ABDURAUUF FITRATNING “ABULFAYZZXON” DRAMASINI O‘RGANISHDA
YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Keldiyeva Nargiza Boltayevna

Alisher Navoiy nomidagi, ToshDO‘TAU akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan adib, dramaturg, shoir va olim Abdurauf Fitratning “Abulfayzzxon” fojiasi haqida, uning o‘rganilishi, tarbiyaviy ahamiyati haqida gap boradi. Unda Buxoro amirligining ichdan yemirilishi, Abulfayzzxonning fojiali taqdiri, ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi haqida gap boradi. Maqolada har bitta obrazga alohida tavsif berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, ma’rifat, badiiy-estetik, badiiy tafakkur, poetik, badiiy to‘qima, dramatik asar.

**Использование новых педагогических технологий в изучении драмы Абдурауфа
Фитрата "Абульфайзхан"**
Keldiyeva Nargiza Boltayevna

Преподаватель академического лицея Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya

В статье рассказывается о трагедии писателя, драматурга, поэта и ученого Абдурауфа Фитрата “Абульфайзхан”, внесшего огромный вклад в развитие узбекской литературы, о ее изучении, воспитательном значении. В нем рассказывается о распаде Бухарского эмирата изнутри, трагической судьбе Абулфейз-Хана, прекращении правления аштарханидов. В статье дается описание каждого персонажа отдельно.

Ключевые слова: педагогическое, просветительское, художественно-эстетическое, художественное мышление, поэтическое, художественно-фактурное, драматическое произведение.

THE USE OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE STUDY OF ABDURAUUF FITRAT 'S DRAMA " ABULFAYZKHAN"

Keldiyeva Nargiza Boltayevna

Teacher of academic Lyceum of Tashkent State

University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation

The article will talk about the tragedy “Abulfayzkhan” by Abdurauf Fitrat, a writer, playwright, poet and scientist who made a huge contribution to the development of Uzbek literature, its study, educational significance. It talks about the internal decay of the Bukhara emirate, the tragic fate of Abulfayzhan, the end of ashtarakhan rule. The article gives a separate description of each image.

Keywords: pedagogue, enlightenment, artistic-aesthetic, artistic thinking, poetic, artistic texture, dramatic work.

Mamlakatimizda xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yangi innovatsion va axborot texnologiyalar asosida ularning bilimni oshirish har bir pedagog xodim oldida turgan dolzarb vazifa qilib belgilangan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”¹ deb ta’kidlaydilar Adabiyot yaratilgan ilk davrlaridan boshlab insoniyatga yuksak darajadagi ruhiy-ma’naviy ozuqa baxsh etib, unga o‘zi va o‘zligini, hayot mohiyatini anglatishga, yaratuvchi –yaralmish asrorlarini kashf etishga xizmat qilib kelmoqda. Shu ma’noda, har bir badiiy asar janri va hajmidan qat’i nazar o‘ziga xos hayot maktabi, “ma’rifat maktabi”, “estetik zavq manbai”dir. Ayni xususiyatlar dramatik asarlar uchun ham xos bo‘lib, ular bu turga mansub asarlarda ayricha namoyon bo‘ladi. Har qanday tarixiy vaziyat badiiylashtirilganda bevosita badiiy to‘qimalarga murojaat qilinadi, muhim tarixiy shaxslarning ma’naviy qiyofasidagi musbat va manfiy qutblar ana shu badiiy to‘qimalar vositasida yanada oydinlashadi. Fitrat qalamiga mansub “Abulfayzxon” dramasida ham badiiyatga tegishli bunday xususiyat o‘zining betakror ifodasini ko‘rsatgan. Bu – Xayol obrazi. Asarning asosiy poetik g‘oyasini to‘la namoyon qiluvchi bu obraz o‘z navbatida muallifning yuksak badiiy-estetik tafakkuri mahsuli. U asarning dramatik pozitsiyasini kuchaytiradi, estetik ta’sir doirasini kengaytiradi. Asar badiiyatiga singdirilgan asosiy ziddiyat –toj-u taxt uchun kurash va ezgulik, insof, diyonat,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so’zi” // 2016 -yil 8-dekabr

adolat g'oyalari o'rtasidagi kurash Xayol obrazida o'z yechimini topadi va uning monologi muallifning yakuniy xulosasi sifatida gavdalanadi.

Asarning beshinchi pardasida toj-taxt talvasasidan qalb ko'zlari ko'r bo'lgan, nafs ilingan johil Rahimbiy hech ikkilanmay 15 yoshli Abdumo'minning umriga zomin bo'ladi. Rahimbiydagi bu qonxo'rlikka oxiri falak ham dosh berolmaydi. Endi unga kimligini ko'rsatish, qilgan jinoyatlari oqibatlarini anglatish fursati yetdi. Bu zolimning nafs balosidan zanglab ketgan ongini tozalamasa, ruhiyatiga ma'naviy ozuqa berilmasa, u yana qanchadan qancha begunohlar umriga zomin bo'lishi tabiiy. Endi bu qora ishlarga nuqta qo'yish, qon to'kishning oldini olish shart. Shuning uchun "ko'k gumburlab, qattiq bir yel esib, shamlarni o'chirib, taxtning orqasidan" bir sharpa – Xayol obrazi yordamga keladi.

Xayol monologi dramada hal qiluvchi badiiy-estetik kuchga ega. Unda dramaturg shunchaki o'z qarashlarini ifodalagan emas. Unda muallifning teran tarixiy, hayotiy falsafasi mujassamlashgan, badiiy tafakkur mezonlari bo'y ko'rsatgan. Unda adibning o'zigagina tegishli bo'lgan shirali tasvir uslubi namoyon bo'lgan, ayricha poetik topilmalari, o'xshatish va istioralari betakror ifoda topgan. Ayni xususiyatlari bilan Xayol nafaqat Rahimbiyni, balki butun insoniyatni o'tkinchi mol-dunyo, toj-utaxt, amal-martaba uchun ma'naviy tubanlashib ketishdan asrab qolishga intilmoqda, jirkanch jinoyatlar, adoqsiz gunohlar oqibatidan ogohlantirmoqda. Xayolning taxtga qarata aytgan monologi nafaqat ushbu dramadagi shaxslar fojiasini, balki toj-u taxt uchun talashib, qanchadan qancha begunohlarning umriga zomin amalparastlarning ham fojiali qismatini yodga soladi.

Shuningdek, dramadagi boshqa obrazlar ham o'ziga xos badiiy-estetik mezonlarga ega bo'lib, ijodkorning badiiy idroki, uslubiy xosligini ayricha namoyon qila olgan. Xususan, Mir Vafo, Ulfat, Qozi Nizom, Ibrohimbiy obrazlari ham dramada yetakchi xususiyat kasb etadi. Mir Vafo - ikkiyuzlamachi, tilida xonga sodiq, aslida esa Hakimbiyga sotilgan xoin sifatida faoliyat ko'rsatadi; Ulfat - xonning eng yaqin xizmatkori, haramog'asi, uning uchun xon dushmanlarini barchasini o'ldirib tashlagandagina halovatga erishish mumkin, Farhod otaliqning haqligini, adolatpeshaligini to'g'ri anglamay, uni darhol boshini tanasidan judo qiladi, demak, bir qadar ongi zaif, ma'naviy qashshoq, ana shu qashshoqlik uni qonxo'r jallodga aylantirgan. Qozi Nizom - bir qaraganda Abulfayzxonga sadoqatli, barcha diniy qonun-qoidalarni, shariat taqozosini xonning manfaatiga yo'naltiradi, ammo vaziyatga qarab tovlanadi - xon vafotidan so'ng o'z mullachiligini Rahimbiyga bo'ysundirib, islomiy aqidalarni uning manfaati yo'lga xizmat qildiradigan ikkiyuzlamachi qozikalon sifatida gavdalanadi.

Dramada faqat vijdotsiz, qonxo'r, insofsiz shaxslar emas, bularning ongsiz qiyofasini, ma'naviy tubanliklarini oshkor qiladigan, dramadagi boshqa obrazlarga nisbatan aqlli va ongli, umuman betaraf, haqiqat, adolat va insofni shior qilgan obraz –Ibrohimbiy obrazi ham salmoqli o'ringa ega. Qora bo'lmasa oqning, xunuk bo'lmaganda go'zalning, yomon bo'lmaganda yaxshining farqi, qadri bilinmasligi ma'lum. Shunga ko'ra, salbiy xarakterdagi

obrazlar Ibrohimbiyning oqil va dono xislatlarini, insoniy fazilatlarini oydinlashtirgan. O'z navbatida, Ibrohimbiy obrazi ham boshqa obrazlardagi kemtikliklarni fosh qiladi, shaxs fojiasi omillarini aniqlashtiradi. U hech qo'rqmasdan dilidagilarni ochiq oshkor etadi, atrofidagilarning nohaq va noto'g'ri qilmishlarini tanqid qiladi. Buning birinchi omili Ibrohimbiyning shaxs sifatida shakllangani, ijobiy xarakter sohibi ekanligi bo'lsa, ikkinchidan u yosh jihatidan ham boshqa ishtirokchilarga nisbatan ancha ulug'. Ko'p yillik hayotiy tajribaga, o'zining donishmand falsafasiga ega.

Xullas, dramadagi har bir obraz o'ziga xos badiiy-estetik qonuniyatga bo'ysundirilgan, o'ziga xos "badiiy yuk"ka ega. Obrazlardagi bu muvofiqlik, tizimlilik, biri ikkinchisini to'ldirib borishi dramaning badiiy mukammalligini ta'minlagan, uning asosini tashkil qiluvchi konfliktlarni harakatlantirgan, kitobxonga ma'lum ma'noda ma'naviy ozuqa berishga yo'naltirilgan. Drama bilan tanishgan o'quvchi uning badiiy xususiyatlarini o'zlashtirish bilan bir qatorda undan estetik zavq oladi, o'z ma'naviy olamini boyitadi: toj-taxt o'rtasidagi kurashning fojiali oqibatlarini anglab yetadi, xoinlik va sotqinlikning umri qisqa ekanligiga amin bo'ladi. Ezgulikning yovuzlik, insof va adolatning ochko'zlik, manfurlik ustidan g'alabasiga guvoh bo'ladi, o'z shaxsida chinakam insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

"Abulfayzxon" dramasi o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

"O'zbekcha bozor" o'yini. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Bu o'yinda har xil balli savollar qo'yiladi. Savollar qiyinligi darajasi baliga qarab oshib boradi. Masalan, 3 balli savollar osonroq,

4 balli savollar o'rtacha qiyinlikda, 5 ballik savollar qiyinroq bo'ladi. O'quvchi o'zi istagan savolni tanlaydi va savolga javob beradi. Va oxirida guruh bo'yicha to'plangan ballar hisoblanadi.

5 balli savollar

1. Kim Rahimbiyga uning bolalariga taxt yuqmasligini, u Abulfayzxonidan ham ko'proq haqsizlik qilayotganini aytgan? Ibrohimbiy
2. "Devona emas, tog'riman. To'g'rilikning devonaliqdan da yomonroq natija berganini bilaman". Bu fikr kimga tegishli Ibrohimbiy
3. "Tangridan boshqa kimsam qolmadi. Hamma iskanjalar pul uchun ekan" deya kim aytgan? Abulfayzxon
4. "Bir o'lkani olmoq uchun eng yaxshi chora-shu o'lkaning o'zidan do'stlar topmoqdir" degan kim?

Nodirshoh Rizoqulixon

5. "Abulfayzxon" dramasi Abulfayzxoniga sizni kim o'limga buyurdi deyishadi?

4 balli savollar:

6. "Abulfayzxon" dramasi xayol kim? Siyovush

7. Dramada “Biz xon hazratlariga o`zimizni qurbon qildik. Endi nomusimizni ham so`ramasinlar” deya kim aytgan? Farhod otaliq
 8. Dramada Abulfayzxonga “Bu kecha tushimda payg`ambarni ko`rdim, sizni so`rab yubordilar” deya chopon kiygan amaldor kim? Qozi Nizom
 9. Dramada “Tuhfai xoniy” degan tarixiy asar yozgan kim? Mir Vafo
 10. “Abulfayzxon” dramasida “Abulfayzxon tomonidan Meni ota kabi asrag`on” deya aytilgan shaxs kim? Farhod otaliq
- 3 balli savollar
11. “Abulfayzxon” dramasi qachon chop etilgan? 1924-y
 12. “Podshohlik-qon bilan sug`oriladigan og`och” degan fikr kimga tegishli? Ulfat
 13. Dramada Abulfayzxonning otasi olib kelgan qullar kimlar? Ulfat, Davlat
 14. “Abulfayzxon” dramasida Abulfayzxon kimni Farhod otaliqning o`rniga o`tqazadi? Ibrohimbiy
 15. Dramada Abdumo`min necha yashar edi? 15 yosh

“Domino” o`yini

Domino o`yini. O`yin kamida 2 ta guruhda o`tkaziladi, unda ikki kishi ishtirok etadi. O`yinchilarga quyida tayyorlangan kartochkalar aralashtirilib, tarqatib beriladi. Har bir kartochka uchun berilgan savollarga mos javob noto`g`ri tashlanguncha o`yin davom etadi. Noto`g`ri javob bergan o`quvchi mag`lub hisoblanadi. Agar o`yinning oxirigacha barcha javoblar to`g`ri tashlansa, qo`lida kartochka qolib ketgan talabani mag`lub deyish mumkin.

Fitratning tarixiy fojeasi qanday nomlanadi?

J: “Abulfayzxon”

S: Eron shohi Nodirshoh bilan do`stlashganmansabdor kim?

J: Hakimbiy

S: “Davlatimizning buyuk, buyuk teraklarini o`z qo`lingiz bilan yiqita berdingiz ”deya Abulfayzxonga ta`na qilgan shaxs kim?

J: Rahimbiy

S: Abulfayzxon qamalgan joyga lahm kovlab kelgan shaxs kim?

J: Ulfat

S: “Sen fazilatli bilimlarning qo`l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg`uchi adiblarning qalamlarini o`choq supurgisiga aylantirding” deya kim aytgan?

J: Xayol

S: Asardagi Mir Vafo kim?

J: “Tuhfai xoniy” asari muallifi

S: Asardagi Rizoqulixon qanday obraz?

J: Nodirshohning o`g`li

S: Davlat to`qsoba kim?

J: Xonning yaqin xizmatchilaridan Abulfayzxon otasi sotib olgan qul

S: Rahimbiyning foydasiga fatvo chiqargan diniy ulamo kim?

J: Qozi Nizom

S: “Abulfayzxon” dramasida Rahimbiy eron lashkariga qancha tanga beradi ?

J: 20000 tanga

S: “Meni o`ldirmang, hajga boraman” degan qahramon kim?

S: “Abulfayzxon”

J: Dramada qaysi obraz Abulfayzxon bilan birlashmagan, o`z yurtini dushmanga emin erkin topshirgan?

J: Hakimbiy

S: Ulfat Abulfayzxonni yuraksiz xon, qochmadi, o`ldi deb nimasini olay, yo`lda kerak bo`ldi deb nimasini olib ketadi?

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Bu metodda asardagi har bir qahramon xarakteriga mos ma`lumot beriladi.

Abulfayzxon

1. Mustaqil fikrga ega bo`lmagan xon
2. Davlat boshqaruvini qo`l ostidagi qullariga ishonib qo`yganshaxs

Rahimbiy

1. Hokimiyat uchun Nodirshoh bilan til biriktirgan shaxs
2. Abulfayzxonni, o`g`illarini ham ham o`ldirtirib yuborgan shaxs

Ulfat

1. Abulfayzxonning otasi tomonidan asrab olingan qul
2. Abulfayzxonni qutqarish uchun lahm kovlab kelgan qahramon

Qozi Nizom

1. Tushimda payg`ambarimiz salom aytdilar deb to`n kiygan qahramon
2. Rahimbiyning foydasiga fatvo chiqargan ulamo

Farhod otaliq

1. Abulfayzxon tomonidan o`ldirtirilgan qahramon
2. Qizini Abulfayzxonga berishni istamagan amaldor

Abdulmo`min

1. Abulfayzxonning o`g`li
2. Rahimbiy tomonidan zaharlangan qahramon

Mir Vafo

1. Buxoro tarixini yozgan inson
2. Abulfayzxonning yaqin kishilaridan

Hakimbiy

1. Eron shohi Nodirshoh bilan til biriktirgan amaldor
2. Eron qo`shinlarini Buxoroga kiritgan Abulfayzxonni taxtdan tushirtirgan amaldor

Qurbongul

1. Abulfayzxonning xizmatkori
2. Tinch degan so`zni ko`p ishlatgani uchun

Nodirshoh

1. Eron shohi
2. Rizoqulixonning otasi

Ibrohimbiy

1. Abulfayzxonga haqiqatni ayta olgan amaldor
2. Rahimbiyga ham haqiqatni ayta olgan Fitratning qalb so`zlarini namoyon qilgan shaxs

Oxund

1. Rahimbiyning foydasiga fatvo berdirgan qahramon
2. “Abulfayzxon” dramasi qahramoni

“KUNGABOQAR ” METODI UCHUN SAVOLLAR:

1. Fitratning “O`g`uzxon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” asarlari janriga ko`ra qanday asar? Drama
2. Fitrat qanday mukofotlar bilan taqdirlangan? 1991-yil Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti, 2000-yilda “Buyuk xizmatlari uchun ” ordeni bn
3. Dramadagi qaysi obrazlar to`qima obraz hisoblanadi? Qozi Nizom Davlat, Ulfat
4. Dramadagi tarixiy shaxslar kimlar? Abulfayzxon, Nodirshoh, Hakimbiy, Rahimbiy, Mir Vafo, Ibrohimbiy
5. Fitratning ilk she`riy to`plami qaysi va u qaysi tilda yozilgan? “Sayha-fors tilida”
6. Dramada Abulfayzxon Farhod otaliq o`rniga kimni o`tqazadi? Ibrohimbiy
7. Dramada Ibrohimbiy kimlarni rozi qilmasam siz rozi bo`lmaysiz. Ularni rozi qilmak.da mumkin emas deb kimni nazarda tutadi? Ulfat va Davlat
8. Dramada Ibrohimbiy: “Kecha va Kunduz chog`ir ichib yotdi. Men uning shu ishlarig`a qarshi chiqib urushdim”- deb kimni aytadi? Abulfayzxonni
9. “Ota pichog`i bilan bolalarni bo`g`izlading, bola xanjari bilan otalarni yiqitding” ushbu so`zlar kim tomonidan nimaga qarata aytilgan? Xayol-Siyovushdan taxtga qarata aytilgan.
10. Dramada kim chumchuqqa o`xshatilgan? Abdulmo`min
11. Dramada “Shuni yaxshi bilamankim, inoq qulingiz xoqonimizning muborak xizmatlarini har narsadan ortuq ko`radilar” deb Hakimbiyini himoya qilgan obraz kim? Mir Vafo

12. “Dunyoda har kim o`z kuchiga qarab o`rin tutadi. Bu tirikchilikning o`tkir buyru`gidirki, bung abo`ysunmaganlar dunyodan chiqib ketishlari lozim bo`ladi” Ushbu so`zlar kim tomonidan aytilgan? Rahimbiy Abulfayzonga
13. Yangi xon saylashda qurultoy chaqirish lozimligini aytgan qahramon kim? Ibrohimbiy

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B., Milliy uyg`onish, T., 2002.
2. Qosimov B., Fitrat (chizgilar). Sharq yulduzi, 1992, 10-son, 170-bet.
3. Qosimov B., Fitrat. O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 1991, 10-son.
4. G`aniyev I., Fitrat, e`tiqod, ijod, T., 1994;
5. G`aniyev I., Fitratshunoslik, Buxoro, 1994;
6. G`aniyev I., Fitratning tragediya yaratish mahorati. T., 1994.
7. Boltaboyev H., Abdurauf Fitrat, T., 1996;
8. Boltaboyev H., Fitratning ilmiy merosi, T., 1996.